

ISLOM HUQUQIDA MANBALARNING O‘RNI

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining
“Islom huquqi” magistranti Alisherov Fazlulloh*

Ilmiy rahbar: Y.f.d., prof. N. Azizov

Fazlulloh3311@gmail.com.

+998971113377

Annotatsiya: mazkur maqolada islom huquqidagi asosiy manbalar Qur‘on, hadis, ijmo va qiyosning o‘rni yoritildi. Islomda dalil tushunchasi, ularning darajasi va turlari, ularning islom huquqida e‘tiborga olinishi jihatlari, bu borada ulamolar fikrlari orqali tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Qur‘on, sunnat, ijmo, qiyos, sura, oyat, Payg‘ambar, hadis va fiqh.

Islom huquqi dunyoviy huquq bo‘lgani holda diniy mohiyatga ega bo‘lgani uchun o‘zining sarchashmasini ilohiy manbadan oladi. Islom huquqining asosiy manbalari buyuk faqihlar tomonidan yakdillik bilan to‘rtta deb tan olingan. Usul al-fiqhda manbalar “adilla” (dalillar) atamasi bilan ifodalanadi¹.

Birinchi manba: Qur‘oni karim. Qur‘oni karim 23 yil – risolat (payg‘ambarlik) davri (610632)da Payg‘ambarimiz Hazrat Muhammad alayhissalomga Alloh tomonidan nozil qilingan ilohiy kitob bo‘lib, 114 sura, 6210 oyat, 77434 so‘zdan tarkib topgan.

Qur‘on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo‘lib, “makkiy suralar” deb ataladi. Ularning 19 tasi, 622-yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo‘lib, “madaniy suralar” deb qabul qilingan².

Aytib o‘tilgan bu ikki xil suralarning farqlari shundan iboratki, Makkada nozil qilingan oyatlar ko‘pincha e‘tiqodiy masalalar, ibodatlar, oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlilik, ilmu tafakkurni targ‘ib qilishga qaratilgan. Ularda ko‘pincha “Ey imon keltirganlar, Ey mo‘minlar!” deb xitob etiladi.

Madinada nozil bo‘lgan oyatlar, fiqhiy ahkom – muomalot, jinoyat va jazo, oilaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa munosabatlarga tegishli bo‘lib, ularda asosan “Yo ayyuhannos!” (Ey odamlar, ey insonlar) deb xitob etiladi.

Ikkinchi manba: Sunnat. “Sunnat” lug‘atda yo‘l-yo‘riq ma‘nosida bo‘lib, fiqhiy atama sifatida islom Payg‘ambarining so‘zlari, fe‘llari (amallari) va taqdirleri ya‘ni tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning so‘zlari va amallari majmuidan iborat³.

¹ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. Bayrut: Dorulfikr. 1984. – J.1. – B. 29.

² O‘sha manba. – B. 34.

³ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. Bayrut: Dorulfikr. 1984. – J.1. – B. 35.

Qur’ondan keyin islom huquqining ikkinchi manbai Sunnati nabaviya (Payg’ambarimizning sunnatlari) hisoblanadi. U zotning o‘zlari bunday degan edilar: **«Sizlar uchun ikki narsa qoldirdim, modomiki ularga amal qilib yursangizlar, hech qachon adashmaysizlar. Ular Allohning kitobi va mening Sunnattimdir»**. Shubhasiz, Hazrat Muhammad sollallohu alayhi vasallam Allohning tanlangan vakili, buyuk elchisi va tablig‘otchisi (targ‘ibotchisi) edi. Qur’oni karimda bunday deyiladi: **«Ey Payg’ambar, Alloh tomonidan senga nozil etilgan (yuborilgan, tushirilgan) narsalarni tablig‘ qilgin (odamlarga yetkazgin)»**⁴. (Moida surasi. 67-oyat)

Tadqiqotchi olimlar, jumladan, doktor Ahmad Shalabiy Sunnatni ikki turga bo‘lib o‘rgangan.

Birinchi turi shundan iboratki, agar biror ish qilinmoqchi bo‘lsa, yaratuvchi tomonidan o‘sha ishga tegishli fikr Payg‘ambarga vahiy (vahyi xafiy) orqali bildiriladi. Payg‘ambar uni o‘z so‘zlari orqali bayon etadi. Bu vahiy, ya’ni vahyi xafiyning Qur’on oyatlari, ya’ni vahyi jaliydan farqi shundaki, Qur’on oyatlarining ham mazmuni va ham iborasi Alloh tomonidan Jabroil orqali yuborilgan⁵.

Sunnatning ikkinchi turi shundan iboratki, agar musulmonlar hayotiga tegishli biron-bir yangilik kiritish zarurati sezilsa, lekin uni hal qilish uchun Payg‘ambar (a.s.)ga vahiy kelmasa, bunday ahvolda Payg‘ambarga ijtihod qilish, ya’ni masalani o‘z shaxsiy fikri asosida yechish uchun ruxsat berilgan hisoblanadi. O‘shanda Payg‘ambar ijtihod qilib, sahobalar bilan kengash – maslahat o‘tkazib, bir to‘xtamga keladi.

Sunnatning qonun tuzish salohiyati. Payg‘ambar Qur’onning sharhlovchisi sifatida tashri’ qilish (qonun tuzish) vakolatiga ega bo‘lgan. Shunga binoan, Sunnat tashri’ bo‘yicha ikki asosiy sohani qamrab oladi⁶:

Birinchi soha Qur’onda zikr etilgan hukmlarni yoritib berishga bog‘liq.

Ikkinchi soha Qur’onda ko‘rsatilmagan hukmlarning tashri’iga, ya’ni ularni belgilab berishga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchi sohada Sunnat Qur’oni karim oyatlarini tafsir va ta’vil qiladi, mujmal iboralarini izohlaydi, umumiy ma’noga ega bo‘lganini xoslashtiradi, mutlaq, ya’ni qaydu shartsiz oyatlarga qaydu shart qo‘yadi. Ba’zi bir misollar: Qur’onda “Namoz o‘qinglar” deb amr qilingan, lekin namozlarning soni, sifati, rakatlarining soni Payg‘ambar tomonidan belgilab va amalda ko‘rsatib berilgan. Bu esa mujmal iborani izohlash misolidir.

Umumiy mazmunni xoslashga misol: Qur’onda meros tizimi umumiy ma’noda kelgan, lekin Payg‘ambar meros olish uchun din birligi, qotil bo‘lmaslik va qul bo‘lmaslikni shart qilib qo‘yib, uni xoslashtirgan. Masalan, otasini o‘ldirgan yoki

⁴ Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi A.Mansurov. – T.: Sharq, 2019.

⁵ Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri’il islomiy. Bayrut: 1988. – B.156.

⁶ Doktor Ahmad Shalabiy. Islomda qonun va sud. Qohira, Maktabatunnahzatilarabiya, 1989. – B.156.

nohaqquvohlik bilan uning o‘limiga sabab bo‘lgan farzand otasidan meros olish huquqidan mahrum bo‘ladi va shu kabilar⁷.

Ikkinchi sohada Sunnatga tegishli bahs: Zarurat chog‘ida Qur‘onda aytilmagan biron-bir yangi hukmni Sunnat belgilab beradi. Bu o‘rinda ba‘zi hukmlar Payg‘ambardan vahyi xafiy (ilhomga o‘xshash holat) orqali sodir bo‘lgan va ba‘zilari uning ijtihodi va shaxsiy fikridan kelib chiqqan. Albattaki, Payg‘ambar ijti hod qilishda ham islom ruhi va falsafasini nazarda tutardi.

Bu o‘rinda ko‘p misollar keltirish mumkin. Masalan, jadda (buvi)ga merosdan oltidan bir hissa berish, nikoh bitimining to‘g‘ri bo‘lishi uchun guvohlar shartligi, badan a‘zolari xuni, ya‘ni bahosini belgilash, shuningdek, urf asosida amal qilinganda uning to‘g‘riligini tasdiqlash kabi.

Hadis ilmi yoki hadisshunoslik. Hadis Sunnatning asosiy qismi, ya‘ni Payg‘ambarimizdan rivoyat qilingan so‘zlarni ifodalaydi. Lekin ba‘zi bir tadqiqotchi olimlar, jumladan, al-Azhar universitetining vakili doktor al-Husayniy Abdulmajid Hoshim Sunnat, hadis, xabar va asarni bir ma‘noda, ya‘ni Payg‘ambar tomonidan asos solingan yo‘l-yo‘riq, uning so‘zlari undan sahobalar va tobeindan yetib kelgan barcha rivoyatlarni o‘z ichiga oladi, deb ta‘kidlaydi⁸.

Arabiston, ayniqsa, Payg‘ambarning shahri deb tan olingan Madina shahrida sahobalar ko‘pligi tufayli hadis roviylari ko‘p edi va har doim hadislar rivoyat qilinib turardi. Iroq o‘lkasiga esa sahobalar Hazrat Umar davrida yuborildi va undan keyin siyosiy hodisalar va urushlar ko‘pligi sababli, Iroqhadis roviylarini yetarli darajada jalb etishga muvaffaq bo‘lmadi. Bundan kelib chiqqan murakkab muammolar hadislarni saralash, ya‘ni haqiqiy hadislarni ja‘liy (to‘qima) hadislardan ajratib olish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu maqsadga erishish uchun bir qator usul va qoidalar ishlab chiqilib, hadisshunoslik ilmiga asos solindi⁹.

Uchinchi manba: ijmo. “Ijmo so‘zi ittifoq va kelishuv ma‘nosida ishlatiladi. Fiqhiy atama sifatida “ijmo odillik sifati va mujtahidlik malakasiga ega bo‘lgan bir davr olimlarining muayyan hukmlar bo‘yicha kelishuvidan iboratdir”.

Ijmo, Sunnatdan keyin fiqh – islom huquqining uchinchi asosiy manbai bo‘lib, u orqali belgilangan hukmlarga amal qilish vojib bo‘ladi. G‘azzoliy fikricha, ijmo mazhabiy masala bo‘yicha Muhammad ummatining ittifoqi – kelishuvidir.

To‘rtinchi manba: qiyos. Qiyosning lug‘aviy ma‘nosi solishtirish va taqqoslash bo‘lib, huquqiy atama sifatida hukmi aniq bo‘lmagan masalani nass orqali hukmi aniq bo‘lgan masala bilan solishtirib, oralarida mushtarak sabab mavjud bo‘lgan suratda ikkinchi masala hukmini hukmi aniq bo‘lmagan masalaga ko‘chirishdan iboratdir.

⁷ Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri‘il islomiy. Bayrut: 1988. – B.163.

⁸ Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. J.1. Bayrut: Dorulfikr. 1984. 45-b.

⁹ I. Tabariy, Erondagi dunyoqarashlar va ijtimoiy harakatlar haqida tekshirishlar. Kobul: Davlat chop va nashr qo‘mitasi, 1361 h.y. – B. 225.

O‘shanda ikkinchi masala islom qonuniga muvofiq bo‘lsa, birinchi masala ham qonuniy bo‘ladi yoki aksincha¹⁰.

Xulosa

Islom manbalari faqat diniy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki hozir jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaydi. G‘arb huquqi dunyoviy tizim bo‘lgani

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad ibn Idris Qorofiy. Anvorul-buruq fiy anva’il-furuq. /79-farq/. Misr: Daru ihya’il kutubil arobiyya, 2010. 2-juz. – 456 b.
2. Ibn Obidin. Raddul-muxtor ala durril-muxtor. - Riyoz: Doru kutubil-olam, 2003. 4-juz, – 630 b.
3. Vahba Zuhayliy. Islom fihi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. J.1. – 429 b.
4. Doktor Ahmad Shalabiy. Islomda qonun va sud. – Qohira: Maktabatun nahzatil arabiya, 1989. – 456 b.
5. Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri’il islomiy. – Bayrut: 1988. – 248 b.
6. S. A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 177 b.
7. I. Tabariy, Erondagi dunyoqarashlar va ijtimoiy harakatlar haqida tekshirishlar. Kobul: Davlat chop va nashr qo‘mitasi, 1361 h.y. 350 b.

o
,
l
g
a
n
i

u
c
h
u
n

o

¹⁰ Vahba Zuhayliy. Islom fihi va uning manbalari. J.1. Bayrut: Dorulfikr. 1984. – B. 47.

G